**TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 18-avgust | 318-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

## Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 12-avgustdagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 512-10-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-iyundagi 5066-sonli farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasi va hududiy komissiyalar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 19-iyuldagi 525-sonli qarori, shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 12-avgustdagi 512-10-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlashda “Mahalla davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq **qaror qilaman:**

1.Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 12-avgustdagi 512-10-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

**Quyidagilar:**

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

hududiy komissiy “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida ishni tashkil etsin.

**2.** Tuman Favqulotda vaziyatlar tuman bo‘limi (U.Maxammadjonov), har oyda keyingi oyning 10-kunigacha viloyat komissiyasining ishchi organiga uning qarorlari bajarilishi holati to‘g‘risida axborot taqdim etib borsin.

**3.** Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Favqulodda vaziyatlar tuman bo‘limi boshlig‘i U.Maxammadjonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **S.Ergashev**

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 18-avgustdagi
318-10-212-Q/25-son qaroriga
1-ilova

# Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida NIZOM

1. Ushbu Nizom Toshkent tumanida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyalarining (*keyingi o‘rinlarda hududiy komissiyalar deb ataladi*) vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Hududiy komissiya shaxsiy tarkibi Toshkent tuman hokimining qarorlari bilan tasdiqlanadigan kollegial organ hisoblanadi.

3. Tuman komissiy o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

4. Tuman komissiyalarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari tegishli ma’muriy hududda joylashgan davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, Mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

## 2-bob. Tuman komissiyalarning funksiyalari

5. Toshkent tumani hududiy komissiyasi unga yuklangan vazifalar bajarilishi maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining qarorlari bajarilishini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi tahdidi va xavfi omillari oldindan aniqlanishini, ularning rivojlanishi kuzatilishini, shuningdek aholi xavfsizligi ta’minlanishi choralarini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelishining mavjud xavflarini to‘liq bartaraf etish bo‘yicha tashkiliy va muhandislik-texnik tadbirlar komplekslarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradi;

iqtisodiyotning potensial xavfli va boshqa obyektlari barqarorligini ta’minlash masalalarini ko‘rib chiqadilar va ularning ishonchliligini oshirish yuzasidan vazifalarni belgilaydi;

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish bo‘yicha tadbirlar bajarilishining holati, boshqaruv organlari, kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda harakat qilishga tayyorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitadi;

viloyat fuqaro muhofazasi boshlig‘ining qarorlari loyihalarini ishlab chiqadilar va obyektlarda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda harakatlar muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslarning idoraviy zaxiralari ro‘yxati va hajmlarini aniqlaydi;

favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholini, shu jumladan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda bevosita ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari rejalarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha joylarda ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligini nazorat qiladilar va tekshiradi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasi qarorlari bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni, shuningdek uning yig‘ishini tayyorlash uchun axborot-tahliliy materiallarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining ishchi organiga belgilangan muddatlarda taqdim etadi;

hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yuklangan vazifalarni bajarish bo‘yicha boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

6. Tuman komissiyasi yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasining, shuningdek viloyat hududiy komissiyasining qarorlari bajarilishini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi tahdidi va xavfi omillarini oldindan aniqlaydilar, ularning rivojlanishini kuzatadilar, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlarning zarari va oqibatlarini kamaytirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

tuman fuqaro muhofazasi boshliqining qarorlari loyihalarini ishlab chiqadi hamda obyektlarda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, shu jumladan aholini va obyekt xodimlarini evakuvatsiya qilishda harakatlar muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi;

boshqaruv organlari, kuchlar va vositalarning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tayyorligini ta’minlashga amaliy ko‘maklashadi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadlarida moliyaviy va moddiy-texnik resurslarning zaxira fondlari barpo etilishi choralarini ko‘radi;

Hukumat komissiyasi, viloyat hududiy komissiyasi qarorlari bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni hamda ularning yig‘ilishlari uchun axborot-tahliliy materiallarni viloyat komissiyasining ishchi organiga belgilangan muddatlarda taqdim etadi;

hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yuklangan vazifalarni bajarish bo‘yicha boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**3-bob.Hududiy komissiyalarning huquq va majburiyatlari**

7. Viloyat hududiy komissiyasi:

belgilangan tartibda topshiriqlar berish, o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha zarur axborotni so‘rash;

yig‘ilishlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida qabul qilingan qarorlarning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitish;

oldindan qo‘yilgan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek topshirilgan tadbirlar o‘z vaqtida bajarilmagan va sifatsiz bajarilganligi uchun intizomiy choralarni qo‘llash huquqiga ega.

8. Viloyat hududiy komissiyasi ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida:

aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning eng muhim va muammoli masalalarini aniqlashga, shuningdek ularni hal etish bo‘yicha tadbirlarni ta’minlashga;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tashkilliy va muhandisliktexnik tadbirlar ishlab chiqarilishi va amalga oshirishiga, potensial xavfli obyektlarning ishonchliligini oshirishga, iqtisodiyot tarmoqlarining favqulodda vaziyatlarda faoliyat ko‘rsatishi barqarorligini ta’minlashga rahbarlik qilishga;

favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholini, shu jumladan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda bevosita ishtirok etgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga;

idoraviy boshqaruv organlari, kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishgan tayyorligini ta’minlash, obyektlarda favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilishda harakatlarni muvofiqlashtirish choralarini ko‘rishga;

moliyaviy va moddiy resurslarning davlat zaxiralarini barpo etish ishlarini tashkil etishga majburdir.

9. Shaharlar va tumanlarning hududiy komissiyalari ularga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari amalga oshirilishini avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlarning zarari va oqibatlari kamaytirilishini ta’minlashga;

boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorligini oshirish amaliy yordam berishga;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish va jabrlanganlarga yordam berish uchun foydalaniladigan moliyaviy va moddiy-texnik resurslar zaxiralarini barpo etishga va belgilangan normalarda (turda va miqdorda) saqlashga majburdir.

**4-bob. Hududiy komissiyalar faoliyatini tashkil etish**

10. Hududiy komissiyalarga raislar boshchilik qiladi, ularning vakolatiga quyidagilar kiradi:

hududiy komissiya yig‘ilishlari kun tartibini belgilash va chaqirish;

qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish;

hududiy komissiyalar a’zolarining ularga yuklangan vazifalar bajarilishi bo‘yicha ishini muvofiqlashtirish;

hududiy komissiyalarning samarali ishlari samaradorligini ta’minlash bo‘yicha boshqa harakatlarni amalga oshirish.

11. Hududiy komissiya o‘z faoliyatini doimiy asosda hududiy komissiya yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan va uning rais tomonidan tasdiqlanadigan yillik rejalarga muvofiq amalga oshiradilar.

12. Hududiy komissiya yig‘ilishlari zaruratga ko‘ra, biroq bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi va yig‘ilishlar qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

13. Zarurat bo‘lganda hududiy komissiyaning sayyor yig‘ilishlari tashkil etilishi mumkin.

14. Hududiy komissiyalar har yili bo‘lajak yilda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza etish bo‘yicha asosiy tadbirlar rejalari ishlab chiqilishini tashkil etadilar, o‘z yig‘ilishida ko‘rib chiqadilar va tasdiqlash uchun tegishli ma’muriy hududlar fuqaro muhofazasi boshliqlariga kiritadilar.

15. Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishining real xavfi tug‘ilganda hududiy komissiyalar raislari tomonidan navbatdan tashqari yig‘ilishlar chaqirilishi mumkin.

16. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza etish sohasidagi tadbirlar bajarilishi holatini nazorat qilish uchun zarurat bo‘lganda hududiy komissiyalar tomonidan ishchi guruhlar tashkil etilishi, shuningdek ushbu sohada hududiy xizmatlar faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritilishi mumkin.

17. Hududiy komissiyalar yig‘ilishini raislar olib boradilar, ular yo‘qligida yig‘ilishni ularning o‘rinbosarlari olib boradilar. Hududiy komissiyalar yig‘ilishi, agar ular a’zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa vakolatli hisoblanadi.

18. Hududiy komissiyalar raislari bilan kelishilgan holda yig‘ilishda xolisona sabablarga ko‘ra qatnasha olmaydigan komissiyalar a’zolari o‘rniga ularning vakolatli vakillari qatnashishi mumkin.

## 5-bob. Hududiy komissiyalarning ishchi organlari va kotiblari

19. Favqulodda vaziyatlar tuman bo‘lim) hududiy komissiyalarining ishchi organlari hisoblanadi.

20. Hududiy komissiyalarning ishchi organlari:

kelgusi yilda hududiy komissiyalarning ish rejasi loyihalarini tayyorlaydilar;

hududiy komissiyalarning navbatdagi yig‘ilishiga barcha hujjatlar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydilar;

hududiy komissiyalarning qarorlariga muvofiq zarur axborot, tahliliy va boshqa materiallarni hududiy komissiyalarning ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadilar;

joylarga chiqib hududiy komissiyalar tomonidan qabul qilingan qarorlar bajarilishi monitoring olib boradilar;

hududiy komissiyalarning qarorlarini ijro etish holati to‘g‘rishida axborot yig‘adilar va muntazam ravishda (bir oyda kamida bir marta) hududiy komissiyalar raislariga axborot beradilar.

21. Quyidagilar tegishli ravishda hududiy komissiyalarning kotiblari hisoblanadilar:

viloyat hokimliklarining favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha bosh mutaxassislari;

shaharlar va tumanlar hokimlarining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari kotibiyatlarining bosh mutaxassislari.

22. Hududiy komissiyalar kotiblari:

hududiy komissiyalar yig‘ilishlari kun tartibi masalalari bo‘yicha o‘tkazilishini tashkil etadilar;

barcha zarur hujjatlar navbatdagi yig‘ilishga to‘planishi, umumlashtirilishi va hududiy komissiyalar raislariga taqdim etilishini ta’minlaydilar;

hududiy komissiyalar yig‘ilishiga materiallarni tayyorlash yuzasidan ishchi organga ko‘maklashadilar;

hududiy komissiyalar raislari bilan yig‘ilishning muddati va joyini hamda taklif etiladigan shaxlar ro‘yxatini kelishadilar;

hududiy komissiyalari a’zolari va taklif etilgan shaxslarga yig‘ilish o‘tkaziladigan sana, vaqti, joyi to‘g‘risida xabar beradilar;

hududiy komissiyalar qarorlari bajarillishi monitoringini olib boradilar va uning natijalarini hududiy komissiyalar yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun taqdim etadilar;

hududiy komissiyalar bayonnomalarini rasmiylashtiradilar va tasdiqlangan bayonnomalarni hududiy komissiya a’zolariga, manfaatdor boshqarmalar, tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuboradilar.

## 6-bob. Hududiy komissiyalar yig‘ilishiga materiallarni tayyorlash tartibi

23. Kun tartibi masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar yig‘ilishlari materiallari yig‘ilishlar o‘tkazilishidan kamida 20 kun oldin tayyorlanadi hamda ko‘rib chiqiladigan masalalarning mohiyati, mavjud muammolarni ochib beruvchi axborot-tahliliy materiallarni va bajarishning aniq muddatlari, bajaruvchilar, moliyalashtirish manbalari va moddiy-texnik ta’minlash, vaziyatning salbiy rivojlanishi prognozi ko‘rsatilgan holda ularni hal etish bo‘yicha takliflarni;

muammoning holatini va zarur moddiy-texnik va moliyaviy resurslarni yorqin namoyish qiluvchi taqdimotni; kun tartibi masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar qarorlari loyihasini o‘z ichiga oladi.

24. Hududiy komissiyalar qarorlarini bajarish bo‘yicha taqdim etilgan materiallar ishchi organlar tomonidan ko‘rib chiqiladi, ishchi organlar ularning navbatdagi yig‘ilishda ko‘rib chiqish uchun rasmiylashtiradilar, hududiy komissiyalar yig‘ilishi kun tartibini tayyorlaydilar va hujjatlar to‘plamini hududiy komissiyalar kotiblariga taqdim etadilar.

25. Hududiy komissiyalar yig‘ilishilari kun tartibining har bir masalasi bo‘yicha hujjatlar to‘plamida barcha zarur hujjatlar va hududiy komissiyalar qarorlarining loyihalari bo‘lishi lozim.

26. Hududiy komissiyalar kotiblari taqdim etilgan materiallar haqida raislarga axborot beradilar, raislar kun tarkibi va taqdim etilgan materiallar ma’qullangan taqdirda 7 kun oldin hududiy komissiyalar yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqtini hamda yig‘ilishga taklif etiladigan shaxslarni belgilaydi.

27. Hududiy komissiyalar kotiblari ishchi organlar bilan yig‘ilish hujjatlari bayonnoma loyihasi bilan birga hududiy komissiyalar a’zolariga hamda, zarurat bo‘lishiga taklif etilgan boshqa shaxslarga yuborilishini ta’minlaydilar.

28. Hududiy komissiyalarning navbatdan tashqari yig‘ilishlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Hukumat komissiyasi yoki hududiy komissiyalar ishchi organlarining maxsus xabarlari asosida raislar tomonidan chaqiriladi.

Ularni o‘tkazish muddatlari hududiy komissiyalar raislari tomonidan belgilanadi va ularning a’zolariga hududiy komissiyalar kotiblari tomonidan shoshilinch tartibda yetkaziladi.

Navbatdan tashqari yig‘ilishlarda ular o‘tkazilayotgan paytda favqulodda vaziyat xavfi yuzaga kelishi to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotlar, shuningdek oldin rasmiylashtirilgan tegishli axborot-tahliliy materallar ko‘rib chiqadi.

## 7-bob. Hududiy komissiyalar tomonidan qarorlar qabul qilinishi va ularning bajarilishini tashkil etish

29. Hududiy komissiya qarorlari ularning a’zolarining fikrlari va qarorlari umumlashtirilishi yo‘li bilan kollegial qabul qilinadi. Hududiy komissiyaning har bir a’zosi qabul qilinadigan qarorlar bo‘yicha o‘zining alohida fikri va taklifini yozma ravishda ifodalashga haqlidir. Hududiy komissiyalar a’zolarining fikrlari va takliflari teng bo‘lganda raislarning fikri hal qiluvchi hisoblanadi.

30. Hududiy komissiyalar raislari qarorlarni tezkor qabul qilish maqsadida ayrim masalalar bo‘yicha hududiy komissiyalar a’zolari bilan so‘rov yo‘li bilan kelishilgan hududiy komissiyalarning qarorlarini tasdiqlashi mumkin.

31. Hududiy komissiyalarning qarorlari hududiy komissiyalar yigilishining bayonnomalari bilan rasmiylashtiriladi. Hududiy komissiya yig‘ilishi bayonnomalariga ularning barcha a’zolari tomonidan viza qo‘yiladi, kotiblar tomonidan imzolanadi, hududiy komissiyalar raislari tomonidan tasdiqlanadi va bir hafta muddatda hududiy komissiyalar a’zolariga va manfaatdor tashkilotlarga yuboriladi.

32. Hududiy komissiyalar yig‘ilishlari bayonnomaning asl nusxalari va ularning materiallar tegishli ravishda:

viloyat hokimligining favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha bosh mutaxassislarida;

shaharlar va tumanlar hokimlarining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlarning kotibiyatlarida saqlanadi.

33. Hududiy komissiyalar qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilish ishchi organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 18-avgustdagi
318-10-212-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 18-avgustdagi
318-10-212-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**Toshkent tuman Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha hududiy komissiyasi tarkibi**

**Komissiya raisi:**

1. S.Ergashev – Tuman hokimi – fuqaro muhofazasi boshlig‘i.

**Komissiya raisining o‘rinbosari**:

2. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i.
3. Tuman Ichki ishlar bo‘limiboshlig‘i o‘rinbosari.
4. Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i.

**Komissiya a’zolari:**

5. Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i.
6. Tuman Moliya bo‘limi boshlig‘i.
7. Tuman Iqtisodiyot va kompleks rivojlantirish hududiy bo‘limi boshlig‘i.
8. Tuman Prokurori.
9. Tuman Elektr ta’minoti korxonasi boshlig‘i.
10. Tuman Gaz ta’mimnoti korxonasi boshlig‘i.
11. Tuman Uy-joy kommunal xizmati bo‘limi boshlig‘i